

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI URGUT FILIALI**

**“GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI O'QITUVCHISI**

**USMONOV SALOHIDDIN DUSHAN O'G'LILING**

**«O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI» FANIDAN**

**“O'zbekiston va jahon hamjamiyati.”**

**MAVZUSIDA OCHIQ SEMINAR MASHG'ULOTI  
ISHLANMASI**

**SAMARQAND 2024**

**Tuzuvchi: S.D.Usmonov** – Samarqand davlat universiteti Urgut filiali “Gumanitar fanlar kafedrasи o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**A.Turg'unboyev.** - Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport kafedrasи dotsenti, t.f.n.

**O'B.Mattiiev.** –Toshkent Kimyo xalqaro Universiteti Samarqand filiali “Ijtimoiy fanlar”kafedirasи mudiri, dotsent tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## O ‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

MAVZU: “O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.”(2 SOAT)

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 25 nafar
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli va turi:</i>	Seminar mashg‘uloti
<i>Dars rejasi (o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi):</i>	<p><b>1.</b>O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati asoslari va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O‘zbekistonning MDHdagi o‘rni va mavqeining oshib borishi</p> <p><b>2.</b>O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari</p> <p><b>3.</b>O‘zbekistonning Yevropa ittifoqi Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalari</p>
<i>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</i>	Talabalarning fan yuzasidan egallagan bilim va ko‘nikmalarini aniqlash, mustahkamlash, kengaytirish, <b>“O‘zbekistonning eng yangi tarixi”</b> fanidanmustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko‘rsatish va jamiyat hayotida talabaning o‘rnini, o‘zligini anglatishdan iborat.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - talabalarning oldingi mashg‘ulotlarda o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash; - matn va yangi metodlar asosida ularning fanni chuqur o‘zlashtirishlariga ko‘maklashish; - talabalarning yozma va og‘zaki nutqi rivojiga ko‘maklashish	<i>O ‘quv faoliyati natijalari:</i> - talabalar oldingi mashg‘ulotlarda olgan bilim va ko‘nikmalarini namoyon etadilar; - matn asosida o‘zlarining bilimlar boyligini orttiradilar,mavzu yuzasidan tasavvurlarini kengaytiradilar. - dars davomida o‘zlarining yozma va og‘zaki nutqlarini yanada ravonlashtiradilar.
<i>Ta’lim usullari:</i>	Ma’ruza, muloqat, aqliy hujum, insert

<b>Ta'lim shakli:</b>	Jamoa, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash, tezkor savol javoblar
<b>Ta'lim vositalari:</b>	O‘quv dasturi, amaliy mashg‘ulotlar matni, darslik, o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar, doska, bo‘r, tarqatma materiallar, test, tarqatma kartochkalar, kompyuter texnologiyasi va boshqalar.
<b>Ta'lim berish sharoiti:</b>	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo‘lib ishlashga mo‘ljallangan stollar, stullar mavjud auditoriya.
<b>Monitoring baholash:</b>	Og‘zaki so‘rov: tezkor so‘rov. Yozma so‘rov: savollarga yozma javob, yozma bajarilgan topshiriqlarini tekshirish, test bilan ishslash

#### **Foydalaniłgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T. 1. - Toshkent: O‘zbekiston .. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O‘zbekiston . 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. - Toshkent: O‘zbekiston . 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston . 2017.
5. Karimov I.A. Inson uning huquq va erkinliklari - oliv qadriyat. T. 14. - Toshkent: O‘zbekiston , 2006.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
7. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston , 2011.
8. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. - Toshkent: O‘zbekiston . 2015.
9. Mustaqil O‘zbekiston tarixining dastlabki sahifalari. - Toshkent, 2000.
10. Erkayev A. O‘zbekiston yo‘li. - Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
11. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug‘at // M.Abdullyaev va boshqalar: to‘ldirilgan uchinchi nashr. - Toshkent: Sharq, 2006.
12. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
13. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. Mas’ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.

## **Mavzu: O'zbekiston va jahon hamjamiyati Reja**

**1.** O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati asoslari va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O'zbekistonning MDHdagi o'rni va mavqeining oshib borishi

**2.** O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari

**3.** O'zbekistonning Yevropa ittifoqi Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari

### **Tayanch so'z va iboralar:**

*O'zbekistonning geosiyosiy holati, tashqi siyosat tamoyillari, O'zbekiston va BMT, O'zbekiston va UNESCO, tashqi iqtisodiy aloqalar, jahon hamjamiyati, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT), Shanxay hamkorlik tashkiloti, MDH, O'zbekiston va Markaziy Osiyo, O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari, O'zbekiston va AQSh, O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari.*

**1.** O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi yosh davlatimizni jahon hamjamiyatiga qo'shilish uchun imkoniyat yaratdi. Shu bois mamlakatimiz rahbariyati istiqlolning dastlabki kunlaridan e'tiboran O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta siyosiy yo'lini belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar o'rnatish kabi dolzarb masalalarni hal qilishga kirishdi. Istibdod davrida mamlakatimiz to'la mustaqil ravishda tashqi siyosat va diplomatik faoliyat yuritish, xorijiy davlatlar va xalqaro nufuzli tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatish kabi huquqlardan mahrum etilgan edi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalari nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17-moddasida Respublika mustaqil tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslari, prinsiplari, maqsad va vazifalari o'zining qonuniy aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqliq umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va havsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar dahsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustuvorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, faravonligi va havfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan chiqish;

- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorliq davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

O'zbekiston Respublikasi o'zining xohish irodasi va taklifiga ko'ra 1992- yil 2-martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot - Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'ldi.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993-yilda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27-sentabrda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va yosh navqiron daviat sifatida namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masailari bo'yicha BMT ning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflar o'rtaga qo'yildi.

1993-yil 24-oktabrda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va ish boshladi.

2018 yil holatiga ko'ra O'zbekistonni 180 ga yaqin davlat tan olgan. Ularning 134 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Toshkentda 45 ta davlatning elchixonalari, 9 ta faxriy konsulxona, 11 ta xalqaro tashkilot, 5 ta xalqaro moliyaviy, 3 ta diplomatik mavqedagi savdo vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda.

2017 yil 19 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mir-ziyoyev AQShda bulib, BMTning 72-sessiyasida nutq suzladı. Mazkur nutk O'zbekistonning BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslarida yangi tendensiyalarni namoyon qildi. O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o'zgarishlar hamda aniq va asosli manbalarga ega bir nechta tashabbuslarni ilgari surdi. Ya'ni globallashuv va axborot kommunikasiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat - BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish, BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, BMT Xavfsizlik Kengashini bosqichma-bosqich isloh qilish kabi global xarakterdagи takliflari jahon jamoatchiligidagi katta qiziqish uyg'otdi. Xususan, O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyeyovning mazkur nutqi mavjud muammolarga mahalliy, mintaqaviy va global darajada ahamiyat qaratilib, ularning yechimiga pragmatik yondashilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

**2.** Hozirda jahonda turli xil xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning orasida **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi** (MDH) o'ziga xos ko'rinishga ega. 1991 yil 8-dekabrda Minskda – Rossiya, Ukraina va Belarus rahbarlarining

uchrashuvida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) ni tuzish to'g'risida shartnomada imzoladilar. Shartnomada 1922 yil 30-dekabrda tashkil topgan SSSR tugatilganligi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tashkil etilganligi rasman e'lon qilindi. 1991 yil 25-dekabrda SSSR xalqaro huquq subyekti sifatida barham topdi va M.S.Gorbachyov Bosh kotib va Prezident lavozimlaridan iste'foga chiqdi.

1991 yil 21-dekabrda Almatida 11 davlat – Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Armaniston, Moldova davlatlari boshliqlarining Kengashida Belovejskoye Pushche shartnomasi yuzasidan protokol imzolanib, "Teng huquqli va ahslashayotgan oliy tomonlar" maqomida MDH muassisi bo'ldilar. Kengashda Almati Deklaratsiyasi qabul qilindi.

1991-2001 yillarda MDH davlatlari boshliqlarining 30 ga yaqin kengashi bo'lib, ularda hammasi bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy umumiy sohalarga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilgan, tegishli 1400 dan ortiq masalalar muhokama etilib tegishli normaviy, tavsifiy hujjatlar, bitimlar, shartnomalar imzolangan. MDHda hamjihatlikni mustahkamlash va rivojlantirish jarayoni davom etmoqda, yilda bir necha bor sammitlar o'tkazilib kelinmoqda.

1992-yil 20-martda Kiyev shahrida O'zbekiston Respublikasi bilan **Rossiya Federasiyasi** o'rtaida diplomatik munosabatlар o'rnatish to'g'risida Protokol imzolangan bo'lsa, 1992-yil 5-mayda Moskvada O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federasiyasi o'rtaida davlatlararo munosabatlар asoslari to'g'risidagi Shartnomada imzolandi, 1992-yil 22-iyulda esa Toshkentda Rossiya Federasiyasi Bosh vaziri A.Shoxin boshchiligidagi Rossiya Federasiyasi va O'zbekiston delegasiyalarining muzokaralari bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston Rossiya munosabatlarni rivojlantirishga aloqador qo'shma axborot imzolangan edi.

2007 yilda Rossiyalik sarmoyadorlar bilan hamkorlikda tashkil qilingan qo'shma korxonalar soni to'rt yuz yelliidan oshadi, Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyasi bilan tuzilgan korxonalar 284 tani tashkil etgan. 2007 yilda O'zbekistonda 132 ta Rossiya firma va kompaniyalari o'z vakolatxonalarini ochganlar. Jumladan, "Vim Bil-Dan-Toshkent (sut mahsulotlari), "Petromaruzgaz" (kimyoviy mahsulotlar), "Baltimor-Chelak" (konserva), "Elimpeks" (to'qimachilik) kabi korxonalar faoliyat olib bormoqda. 2007 yil 14 may kuni Toshkent shahridagi Xalqaro hamkorlik markazida O'zbekiston Rossiya biznes forumi bo'lib o'tdi. Mazkur forumga ishtirok etgan Rossiya delegasiya safida to'qsonga yaqin federal va mintaqaviy miqyosdagi firma va kompaniya vakillari ishtirok etishdi...

2014-yilning 10-dekabrida Rossiya Federasiyasi Prezidenti V.Putinning O'zbekistonga rasmiy tashrifi bo'lib o'tdi. Ushbu tashrifga binoan Sh. Mirziyoyev 2017 yil 4-5 aprel kunlari RF ga tashrif buyurdi. Ushbu tashrifda ikki mamlakat Prezidentlari mamlakatlar o'rtaida turizm, neft vd gaz sohasida o'zaro manfaatli hamkorliq sog'lijni saqlash, tibbiyot va fan sohasida 16 mld lik 50 dan ortiq hujjatlarni imzoladi. 2017 yil O'zbekiston Respublikasi bilan RF o'rtaida diplomatik musobatlar o'rnatilganiga 25 yil to'ldi. Hozirgi kunda mamlakatimizda Rossiyaning 64 ta firma va kompaniyalarning vakolatxonasi ochilgan.

O‘zbekistonda Rossiyalik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda 961 ta qo’shma korxonalar faoliyat ko’rsatmoqda. O‘zbekiston va Rossiya o’rtasida madaniy-gumanitar sohalarida o’zaro hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Adabiyot va san’at uyg’unligini biz Moskva shahrida buyuk O‘zbek shoiri, mutafakkir Alisher Navoiyga, Toshkent shahrida esa Pushkin haykalini o’rnatalganligidan bilishimiz mumkin. Ikki mamlakat o’rtasida qishloq xo’jaligi sohasidagi tovar ayrboshlash 2019 yilda 20 % o’sib 398 mln. ga yetdi.

**Ozarbayjon Respublikasi** bilan O‘zbekiston Respublikasi o’rtasidagi munosabatlар strategik sheriklik darajasiga ko’tarilgan.

Ikki davlat prezidentlari tashriflar chog’ida davlatlarimiz o’rtasidagi hamkorlik munosabatlarini sifat jihatdan yanada yuqori pog’onaga ko’tarishga xizmat qiladigan muhim kelishuvlarga erishildi. Xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish, informasion va kommunikasion texnologiyalar, temir yo’l transporti, soliq, maxfiy ma’lumotlar dahlsizligini ta’minlash sohalarida hamkorlikka oid, shuningdeq gumanitar, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy aloqalarni rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolandi.

O’zaro tovar aylanmasi hajmi 2016-yil yakunlari bo’yicha 21,2 million AQSh dollarini tashkil etdi.

3. O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorliq do’stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Markaziy Osiyodagi beshta davlat o’rtasida o’xshash jihatlar ko’p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakat xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirish zaminidir.

O‘zbekiston Respublikasining tashqi aloqalarida, Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni yo’lga qo’yishida Markaziy Osiyo Hamkorlik (MOH) tashkiloti muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tashkilot 1994 yil iyul oyi boshida O‘zbekiston, Qozog’iston, Qirg’iziston Prezidentlarining Almati shahrida bo’lib o’tgan uchrashuvi asosida tashkil topgan Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (MOIH) zaminida 2002 yil 28-fevralda tashkil topgan. 2002 yil 28-fevral kuni Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvi bo’lib o’tadi. Muzokalararning yakunlari bo’yicha prezidentlar Markaziy Osiyo Hamkorlik (MOH) tashkilotini ta’sis etish to’g’risidagi shartnomani imzolaydilar. Tashkilotning raisi etib I.A.Karimov saylanadi. Bu tashkilot endi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish bilan birga siyosiy-ijtimoiy, madaniy texnikaviy va boshqa aloqa turlarini kengaytirish masalalari bilan shug’ullanadigan bo’ldi. MOH tashkilotining tashkil etilishi, uning a’zolari bo’lgan O‘zbekiston, Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston o’rtasidagi o’zaro manfaatli aloqalarni yanada kuchayishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar bilan aloqalarida **Qozog’iston** Respublikasi bilan yo’lga qo’ylgan ko’p tomonlama o’zaro manfaatli aloqalari katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonning Qozog’iston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992 yil 24-iyunda imzolangan O‘zbekiston bilan Qozog’iston o’rtasida do’stlik va hamkorlik to’g’risidagi

shartnoma asosida mustahkamlanib bormoqda. Qozog'iston va O'zbekiston birinchi Prezidentlari N.Nazarboyev va I.A.Karimovlarning 1994 yil 10-12-yanvardagi Toshkentdagi rasmiy uchrashuvida ikki respublika o'rtasida tovarlar, xizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarini erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit, hisob-kitob, byudjet, soliq, narh boj va valyuta siyosatini ta'minlash to'g'risidagi shartnoma imzolandi. 1998 yil 31-oktyabrdan O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida abadiy do'stlik shartnomasi imzolandi.

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining 2000 yil 20-21-aprelda Toshkentda ikki davlat chegaralarini aniq belgilashga bag'ishlangan uchrashuv bo'ldi. Uchrashuv yakunida "O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Qozog'iston Respublikasi birinchi Prezidenti N.Nazarboyevning qo'shma bayonoti" imzolandi. 2001 yil 17 noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog'istonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegarasi to'g'risida shartnomani imzoladilar. 2440 km uzunlikdagi chegaraning 96 foizi belgilab olindi. Qolgan qismi kelishuv asosida belgilashga kelishildi. 2002 yil 9-sentyabrdan Prezidentlar N.Nazarboyev va I.A.Karimovlar Ostona shahridagi uchrashuvida "O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegaralarining alohida uchastkalari to'g'risida bitim" imzolandi. Ikki davlat o'rtasidagi chegaraga oid masalaar huquqiy jihatdan o'z yechimini topdi.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida iqtisodiy aloqalar rivojlanib bordi. 2002 yilning birinchi yarmida ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 124 million AQSh dollarini tashkil etdi. 2002 yilda O'zbekistonda 38 ta O'zbek-qozoq qo'shma korxonasi, Qozog'istonda 92 ta O'zbek-qozoq qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi. Ijtimoiy sohada ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar ham kengayib bordi. 1994 yilda O'zbekistonda Qozog'iston kunlari o'tkazildi, madaniy aloqalar an'anaviy tus oldi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida qozoq adabiyoti Kengashi, 1992 yildan boshlab qozoq tilida "Nurli jal" respublika gazetasi nashr qilina boshlandi.

2017 yil 23-24 mart kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi birinchi N. Nazarboyev taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasida bo'ldi. Uchrashuvda Afg'oniston muammosi, uni tinch yo'l bilan hal etish zarurligi, transchegaraviy daryolar suvlaridan oqilona foydalanisjh, siyosiy savdo-sotiq masalalari muhokama qilindi. O'zbekistonda hozirgi kunda Qozog'iston kapitali ishtirokida 230 dan ortiq, Qozog'istonda O'zbekistonlik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda 130 dan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Toshkent Samarqandni bog'lovchi Maxtaral tumanidan o'tuvchi avtomobil yo'lining oichilishi, Toshkent- Olmata tezyurar poyezdi va ikki mamlakat o'rtasida avtobus qatnovining yo'lga qo'yilishi, hududlararo aloqalar savdo va turizm rivojlanishiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda ikki davlat prezidentlari SH. Mirziyoyev va Q. Taqayev o'rtasida ikki tomonlama muhim hujjatlar imzolanmoqda va hayotga tadbiq etilmoqda.

O‘zbekistonning **Qirg’iziston** bilan ikki tomonlama hamkorligi O‘zbekiston Respublikasi bilan Qirg’iziston Respublikasi o‘rtasida Toshkentda 1992 yil 29-sentyabrda imzolangan do’stlik hamkorlik va o’zaro yordam haqida shartnoma asosida yo’lga qo’yildi va rivojlandi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1993 yil avgustda Qirg’izistonga qilgan davlat tashrifi paytida ikki mamlakat o‘rtasida 1994-2000 yillarga mo’ljallangan iqtisodiy integrasiyani rivojlantirish to’g’risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan. Ikki davlat o‘rtasida turli sohalarda hamkorlikni mustahkamlash haqida bitimlar imzolangan. 1994 yil 16-yanvarda I.A.Karimov Qirg’izistonda bo’ldi, tovarlar, xizmatlar, sarmoyalalar va ishchi kuchlarini erkin o’tib yurishini nazarda tutuvchi hamda o’zaro kelishilgan savdo-sotiq, byudjet, soliq, narh boj va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladi. Bu hujjatlar asosida ikki respublika o‘rtasida qardoshlik aloqalari, ikki tomonlama hamkorlik rivojlanib bormoqda. 2000 yilda O‘zbekistonda 22 ta O‘zbek-qirg’iz qo’shma korxonasi, Qirg’izistonda 61 ta qirg’iz-O‘zbek qo’shma korxonasi faoliyat yuritdi.

So’nggi yillarda ikki davlat prezidentlari SH. Mirziyoyev va S. Jeenbekov o‘rtasida ikki tomonlama muhim hujjatlar imzolanmoqda va hayotga tadbiq etilmoqda.

**Tojikistonda** 1992-1996 yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sir etdi, uning qo’shni mamlakatlar, shu jumladan, O‘zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta’sir etdi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov taklifiga binoan 1998 yil 4-yanvar kuni Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonov O‘zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo'yicha qo'shma axborot imzoladilar. Uchrashuv paytida ikki davlat o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda hamkorlik bo'yicha bitimlar imzolandi. O‘zbekiston va Tojikiston munosabatlari o'zining yangi mustahkamlanish va taraqqiyot davriga o'tdi. O‘zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1997 yilda 50 million AQSh dollaridan oshdi. 2000 yilda O‘zbekistonda 15 ta O‘zbek-tojik qo’shma korxonasi, Tojikistonda 3 ta O‘zbek-tojik qo’shma korxonasi faoliyat ko’rsatdi.

So’nggi yillarda ikki davlat prezidentlari SH. Mirziyoyev va I. Rahmonov o‘rtasida ikki tomonlama muhim hujjatlar imzolanmoqda va hayotga tadbiq etilmoqda.

So’nggi yillarida O‘zbekiston va **Turkmaniston** Respublikalari o‘rtasida ham do’stlik va ikki tomonlama hamkorlik aloqalari yo’lga qo’yildi va hozirgi davrda bu hamkorlik rivojlanib bormoqda.

2017 yil 23-24 aprel kunlari Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov davlat tashrifi bilan O‘zbekistonda bo’ldi. Uchrashuvda ikki mamalakat o‘rtasida savdo uylari ochish, ishbilarmonlar kengashi tashkil etish, transport, tranzit, qishloq xo’jaligi, fan texnika, sport va boshqa sohalarga doir 17 ta hujjat imzolandi. Oliy o’quv yurtlari o‘rtasida, axboroyt kommunikatsiya sohasida 15 ta hujjat imzolandi. Toshkent shahrida turkman shoiri Maftunquliga

atab ko'cha va unga me'moriy yodgorlik ochildi. Toshkent shahrida 10 hektar maydonni egallagan Ashqabot saylgohi ochilib, unda Turkmaniston ramzi bo'lган ahalteki otlarining haykallari o'rnatildi.

So'nggi yillarda ikki davlat prezidentlari SH. Mirziyoyev va G. Berdimuhamedov o'rtasida ikki tomonlama muhim hujjatlar imzolanmoqda va hayotga tadbiqu etilmoqda.

4. Mustaqil O'zbekiston birinchi navbatda Yaqin va O'rta Sharq hamda arab mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga kirishdi.

**Turkiya** O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991 yil 16 dekabrda tan olgan. Diplomatik aloqalar 1992 yil 4 martda o'rnatilib, shu yil aprel oyida Turkiyaning Toshkentda elchixonasi ochilgan. 1993 yil may oyidan Anqarada O'zbekiston elchixonasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 4 marotaba Turkiyaga tashrif buyurgan (1991, 1994, 1997 va 1998 yy.).

2017 yil 25-26 oktyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga davlat tashrifi amalga oshirildi.

Turkiya prezidentlari T.Ozal (1993y.), S.Demirel (1996y., 1996y., 1999y.), N.Sezer (2000y.) R.Erdog'an (2016y.), bosh vazirlari S.Demirel (1992y.), T.Chiller (1995y.), M.Yilmaz (1998y.) va R.Erdog'an (2003y.) O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurgan.

O'zbekistonga Turkiya Tashqi ishlar vazirlari X.Chetin (1994y.), I.Jem (2000-2001yy.), A.Davutoglu (2014y.), M.Chavushog'lu (2017 va 2018yy.), Turkiyaga O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri (2003y.) tashrif buyurgan. 2014 yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Komilov Anqara shahrida o'tkazilgan Turkiya Prezidenti R.T.Erdog'anning inaugurasiya marosimida ishtirok etdi.

O'zbekiston va Turkiya tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlarning 9 ta raundi o'tkazilgan (oxirgisi 2018 yil 20 martda Anqara shahrida).

2017 yil 14 oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhi tuzildi. Uning rahbari Oliy Majlis Senati raisining birinchi o'rinnbosari S.Safoyev hisoblanadi.

Turkiya O'zbekistonning yirik savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi (Rossiya, Xitoy va Qozog'istondan keyin 4-o'rinda). 2017-yil yakunlariga ko'ra, O'zbek-turk savdo aylanmasi hajmi 1,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

**Pokiston** Islom Respublikasi O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini 1991-yil 20 dekabrda tan oldi. Ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992-yil 10-mayda o'rnatilgan. Pokistonning Toshkentdagi Elchixonasi 1992-yilning iyul oyida ochildi. O'zbekistonning Islomoboddagi Elchixonasi 1994-yil iyul oyidan boshlab faoliyat ko'rsatmoqda.

1992-yil martidan 2001-yil oktyabriga qadar Karachi shahrida O'zbekistonning Bosh konsulxonasi faoliyat yuritdi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Presidenti Islom Karimov Pokistonga 1992-yilning avgusti va 2006-yilning may oylarida tashrif buyurdi.

Hozirgi vaqtga qadar quidagi ikki mamlakatlar o‘rtasida tashriflar bo‘lib o’tdi; bosh vazir N.Sharif (1992-yil iyun), bosh vazir B.Bhutto (1995-yil may va noyabr), president F.Legari (1996-yil oktyabr), president P.Musharraf (2005 yil mart), bosh vazir Sh.Aziz (2007-yil mart), bosh vazir Y.Giloniy (2011-yil mart), bosh vazir N.Sharif (2015-yil noyabr).

2010-yil iyun oyida Pokiston Prezidenti A.Zardari Toshkentda bo‘lib o’tgan ShHT sammitida ishtirok etdi. 2016-yil iyun oyida Pokiston Prezidenti M.Husayn Toshkentda o‘tkazilgan ShHT sammitida qatnashdi.

2017-yil 8-iyunda Ostona shahrida bo‘lib o’tgan ShHT sammiti doirasida O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Pokiston Bosh vaziri N.Sharif bilan uchrashdi.

2017-yil 17-sentyabrda Ostonada o‘tkazilgan islom hamkorlik tashkilotining (IHT) Fan va texnologiyalar bo‘yicha sammitida O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Pokiston Prezidenti M.Husayn bilan uchrashuv o‘tkazdi.

2018-yil iyun oyida ShHTning Sindao sammiti doirasida O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va Pokiston Prezidenti M.Husaynning uchrashuvi bo‘lib o’tdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning shartnomaga-huquqiy asosini 42 davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo hujjatlar tashkil etib, ular ekstradisiya, jinoiy ishlarda o’zaro yordam, terrorizmga qarshi kurash, havo qatnovi, yuklarni transit tashish, savdo-iqtisodiy hamkorliq kichik va xususiy tadbirdorlikni qo’llab-quvvatlash, ikkiyoqlama soliqqa tortishdan voz kechish, giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurash va boshqa sohalarni qamrab oladi.

Hozirgi davrda O‘zbekistonning **BAA, Saudiya Arabiston, Misr Arab Respublikasi, Isroil, Quvayt va boshqa Osiyo** dalatlari bilan har tomonlama aloqalari kengayib bormoqda.

Sovet tuzumi davrida mamlakatlarimiz xalqlari vakillari qanchalik intilmasinlar, qanchalik harakat qilmasinlar, O‘zbekiston – **Xitoy** hamkorligi cheklanganligicha qolib ketaverган edi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo’lga kiritgandan keyin ko’p asrlar davomida shakllanib kelgan O‘zbek va xitoy xalqlari o‘rtasidagi do’stliq hamkorlik aloqalarini tiklash, umuman, ko’p tomonlama faol tashqi siyosat yuritish imkoniyati paydo bo’ldi.

Xitoy O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini tan olgan dastlabki davlatlardan biri hisoblanadi (1991 yil 27 dekabr). 1992 yil 2 yanvarda XXR tashqi savdo va iqtisodiy hamkorlik vaziri Li Lyansinning O‘bekistonga tashrifi davomida ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlarni o’rnatish to’g’risida Bayonnomma imzolangan.

1992 yil 12–14 mart kunlari O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligidagi hukumat delegasiyasi XXR raisi Yan Shankunning taklifiga binoan Xitoya tashrif buyurdi. Tashrif davomida XXR va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlik to’g’risidagi yigirmaga yaqin muhim hujjatlar imzolangan. O‘zbekiston Respublikasi va XXR o‘rtasidagi o’zaro

munosabatlarning tamoyillari to'g'risidagi Shartnoma, O'zbekiston Respublikasi va XXR qishloq xo'jaligi vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi Bitim, O'zbekiston Respublikasi va XXR tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida konsultasiyalar o'tkazish to'g'risidagi Bayonnomalar o'zaro hamkorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ikki davlat hukumatlarining o'zaro kelishuviga va imzolangan bitimlariga asosan, 1992 yilda Xitoyning O'zbekistondagi elchixonasi rasman o'z faoliyatini boshladi. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining XXRdagi elchixonasi 1995 yil 6 mayda Pekin shahrida ochildi. Shuningdeq savdo-tijorat ishlari bo'yicha vakolatxonamiz Xitoyning 15 eng yirik shaharlaridan biri hisobongan Shanxay shahrida o'z faoliyatini bugungi kunga qadar samarali olib bormoqda.

### **O'zbekiston va Xitoyning savdo-iqtisodiy hamkorligi.**

O'zbekiston va Xitoy savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish bosqichlari tahlillariga ko'ra, biz ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar rivojini 3 ta muhim bosqichga bo'lib olishni lozim topdik:

1-bosqich 1992-1996 yillar;

2-bosqich 1997-2005 yillar;

3-bosqich esa 2006-yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 1993 yilda 71,9 million AQSh dollarini tashkil etgan. O'zbekistondan Xitoya umumiyligi qiymati 36,6 mln. AQSh dollari bo'lган mahsulotlar eksport qilingan bo'lsa, Xitoydan O'zbekistonga import 35,3 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. O'zaro savdo aylanmasidagi musbat saldo 1,3 mln. AQSh dollariga teng bo'lган. 1994 yilda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi, deyarli ikki baravarga oshgan va 165 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. Jumladan, eksport 76,9 mln. AQSh dollarini, import esa 88,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan. O'zaro savdo aylanmasida 11,2 mln. AQSh dollari miqdorida manfiy saldo qayd etilgan. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalari keyingi yillarda ham rivojlanib bordi va 1995 – 1996 yillarda o'zaro savdo aylanmasi 218,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Hamkorlikda tashkil etilgan qo'shma korxonalar.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan dunyoning sanoati zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlangan mamlakatlari bilan hamkorlik qilishga, ularning sarmoyasi ishtirokida O'zbekistonda korxonalar tashkil etishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa bu sohani rivojlantirish uchun birinchi navbatda qonunchilik bazasi boyitildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda qulay investisiya muhiti shakllantirilgan, eng ilg'or xalqaro tajribalar asosida xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kafolatlarining mustahkam qonunchilik bazasi, shuningdeq chet el kapitali ishtirokida tashkil etilgan korxonalar uchun imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratilgan. Chunonchi, Prezidentimizning 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarini jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalar hajmi 300 ming dollardan 3 million dollargacha bo'lган korxonalar 3 yil, 3 milliondan 10 million dollargacha bo'lган

korxonalar 5 yil, 10 million dollardan ortiq bo'lgan korxonalar 7 yil muddatga yuridik shaxslar foydasidan olinadigan soliq, mulk solig'i va boshqa qator majburiy to'lovlardan ozod qilinadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiyotini shartli ravishda ikki guruhga bo'lish mumkin. Ulardan birinchi guruhiga (I.A.Karimov bularni "bazovoy" deb ataydi) foydali-mineral xom ashyolarni (tog'-kon va neft-gaz) qazib olish va qayta ishslash bilan bog'liq bo'lib, ularga barcha jalb qilingan xorijiy investisiyalarning 30-40% to'g'ri keladi. Ikkinci guruhga mehnat talab qiladigan va yakuniy sikl bilan tugaydigan ishlab chiqarish kirib (avtomobilsozlik to'qimachilik va tikuvchiliq oziq-ovqat boshqalar), ularda ishlab chiqarish import o'rmini bosishi kerak. O'zbekistonag bu sohaga jami jalb qilingan xorijiy investisiyalarning yarmi to'g'ri keladi.

Koreya Respublikasi bilan 1992-yildan boshlab qulay sarmoyaviy muhim doirasida aloqalar yo'lga qo'yilganligi ikki davlat ishtirokida va qolaversa 100% Koreya investisiyasi ishtirokida tashkil etilayotgan korxonalar sonining muttasil ravishda o'sib borishiga xizmat qildi.

Birgina misol qilib o'tgan asrning 90-yillarida O'zbekiston Rahbariyati hali MDH davlatlarining ko'pchiligi iqtisodiyotini barqarorlashtirishga erishaolmayotgan bir paytda Asaka shahrida Koreya sarmoyasi ishtirokida avtomobil ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. 1992-yilning noyabrida Koreya Respublikasining "DEU" kompaniyasi bilan O'zbekistonda "UzDEUavto" qo'shma korxonasini ishga tushirish haqida kelishuv imzolandi. Ushbu loyihaning umumiy qiymati 1 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Asaka avtomobilsozlik korxonasi 1996-yil iyul oyida avtomobillarni ishlab chiqarishni boshladi.

Avtomobilsozlik – janubiy koreyalik sheriklar bilan birgalikda O'zbekistonda o'zlashtirilgan yuqori texnologiyali eng mashhur ishlab chiqarish sohasi. Ayni paytda Andijon va Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahrida avtomobilsozlik korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda sanoatning bu sohasiga Janubiy Koreyaning 20 kompaniyasi jalb qilingan, 18 qo'shma korxona tuzilgan.

O'zbekistonning Sharqning eng rivojlangan mamlakati – **Yaponiya**, janubi-sharqi Osiyo va Okeaniya mintaqasidagi Malayziya, Indoneziya, Vyetnam, Avstraliya kabi mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik aloqalari yo'lga qo'yildi, o'zaro manfaatli iqtisodiy va madaniy hamkorlik rivojlanib bormoqda.

Keyingi yillarda O'zbekistonning Yaponiya bilan ham munosabatlari rivojlanmoqda

1991-yil 28-dekabrida Yaponiya O'zbekistonning mustaqilligini tan oldi. 1992-yil-26 yanvarda diplomatik munosabatlar o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 3 marotaba – 1994, 2002 va 2011 yillarda Yaponiyaga tashrif buyurdi. O'zbekistonga javob tashriflari 2006 yilning avgust oyida Yaponiya bosh vaziri J.Koidzumi va 2015-yil oktyabrda Yaponiya bosh vaziri S.Abe tomonidan amalga oshirildi. 2010 va 2014-yillarning mayida Yaponiya bosh vaziri o'rindbosarlari, moliya vazirlari N.Kan va T.Aso O'zbekistonga tashrif buyurdi.

2002 yildan boshlab ikki davlatning tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida doimiy ravishda siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazib kelinmoqda. 2017-yil martda siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi uchrashuvi Tokio shahrida o'tkazildi.

5. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatida **AQSh va Yevropa** mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rinn tutadi. O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi hamkorlik va davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillardayoq yo'lga qo'yildi. 1992 yil 15-16-fevral kunlari AQSh davlat kotibi Jeyms Beyker O'zbekistonga tashrif buyurdi va ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992 yil 16-martda Toshkentda birinchi bo'lib AQShning elchixonasi ochildi. O'zbekistonda 1996 yil boshlarigacha Amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 200 ta O'zbek-amerika qo'shma korxonasi tashkil topdi va faoliyat ko'rsatdi. Bular orasida Navoiy viloyati Zarafshon vodiysidagi Muruntovda AQShning Nyumont Mayning Korporasiyasi bilan hamkorlikda tog' jinslaridan oltin va kumush ajratib oluvchi "Zarafshon - Nyumont" qo'shma korxonasi bor. Bu korxonada 2002 yilgacha 83 tonna oltin tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi «Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiysi»ga muvofiq, respublika tashqi siyosatining ustivor yo'naliishlardan biri Amerika Qo'shma Shtatlari bilan hamkorlik hisoblanadi. Joriy O'zbekiston-AQSh munosabatlari o'zining kompleksliliq uzoq muddatli va ko'p qirrali jihatlari bilan ajralib, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan tamoyillari va normalari, o'zaro hurmat va bir-birining manfaatlarini inobatga olishga asoslangan.

Tomonlar bir qator xalqaro va mintaqaviy muammolar bo'yicha mushtarak pozisiyaga ega bo'lib xavfsizlik tahdidlari, ya'ni giyohvand moddalarining noqonuniy aylanishi, ommaviy qirg'in quollarining tarqalishiga qarshi kurash, shuningdeq Markaziy Osiyo va Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash sohalarida o'zaro faol hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston-AQSh munosabatlari doirasidagi barcha yo'naliishlarda sifat jihatidan yangi va o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishni belgilab bergen asosiy hujjat bu ikki mamlakat o'rtasida 2002-yil martda imzolangan Strategik sherikchilik va hamkorlikning asoslari to'g'risidagi Deklarasiya hisoblanadi.

Ikki tomonlama hamkorlikni muntazamlashtirish hamda qayd etilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida AQSh bilan o'zaro manfaatli va barcha sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli «Yo'l xaritasi» amalga oshirilmoqda.

2017-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev va AQSh Prezidenti D.Tramp o'rtasida bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotida o'zaro hurmat, ishonch va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillari asosida ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga sodiqligi ta'kidlandi.

Ikki tomonlama siyosiy muloqotlar o'zaro tashriflarning yuqori muntazamligi bilan ham ajralib turadi. O'zbekistonga AQSh ma'muriyatining asosiy idora vakillari va turli darajadagi delegasiyalari muntazam ravishda tashrif buyuradi va

O‘zbekiston - AQSh munosabatlarining dolzarb masalalari bo‘yicha fikr almashish mexanizmi - yillik siyosiy maslahatlashuvlar tashkil etiladi.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi delegasiyasi AQShga va Vakillar palatasi a’zosi T. Kelli boshchiligidagi bir guruh kongress a’zolari O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

O‘zbekiston va AQSh o’rtasida ustuvor ahamiyatga ega bo’lgan savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik faol rivojlanmoqda.

Mamlakatlar o’rtasidagi ishbilarmonlik aloqalarini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirishda AQSh-O‘zbekiston savdo palatasi muhim ahamiyat kasb etadi. AQSh va Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasida imzolangan TIFA savdo va investisiyalar to’g’risidagi bitimning amalga oshirilishi Amerika bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga hissa qo’shamoqda.

O‘zbekistonda AQShning dunyoda taniqli bir qator yirik kompaniyalari faoliyat ko’rsatmoqda. Xususan, «General Motors» korporasiyasi ishtirokida yengil avtomobillar uchun dvigatellar ishlab chiqarishga mo’ljallangan «General Motors Powertrain Uzbekistan» zavodi faoliyat ko’rsatmoqda.

«Boeing» kompaniyasi «O‘zbekiston havo yo’llari» Milliy aviakompaniyasini zamonaviy avialaynerlar, xususan «Boeing-787-8 Dreamliner» rusumidagi yangi avlod samolyotlari bilan ta’minlovchi asosiy va doimiy hamkor sanaladi.

«General Electric» korporasiyasi O‘zbekistonning neft-gaz va aviasiya sektorlarida, shuningdeq salomatlik va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi muhim hamkori hisoblanadi.

AQShning O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan boshqa kompaniyalari ichida «Exxon Mobil», «CNH Industrial», «Coca-Cola», «Hyatt», «Hilton», «John Deyere», «Honeywell», «Caterpillar» va boshqalar ham mavjud.

Madaniy-gumanitar sohadagi munosabatlar muntazam ravishda rivojlanmoqda. So’nggi yillarda ilm-fan va ta’lim sohalarida hamda yangi aloqalar o’rnatish va erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, eng avvalo madaniy-gumanitar va ilmiy-ma’rifiy hamkorlikni yanada mustahkamlash borasida amaliy ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonga AQShning ixtisoslashtirilgan muassasalari va tashkilotlari ekspertlari muntazam ravishda muzokaralar va amaliy tadbirlar o’tkazish maqsadida tashrif buyuradi hamda O‘zbek mutaxassislari AQShning turli-xil ilmiy va ta’lim dasturlarida ishtirok etadilar. AQShning bir nechta universitetlari, jumladan Texas A&M va Missisipi universitetlari bilan qo’shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

Universitetlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish doirasida O‘zbekistonning bir qator oliy ta’lim muassasalari hamda AQShning Ogayo va Michigan universitetlari, Boston yuridik kolleji, Amerika va Jorjtaun universitetlari kabi oliy ta’lim muassasalari bilan aloqalarni kengaytirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Xususan, Toshkentda Webster universiteti filialini ochish to’g’risida kelishuvga erishildi. AQSh tibbiyot muassasalari va O‘zbekiston ixtisoslashgan klinika va shifoxonalari o’rtasida, jumladan jarrohliq kardioxirurgiya, urologiya, akusherlik

va ginekologiya ko'z mikroxirurgiyasi yo'nalishlarida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatildi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvida Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora rivojlantirish alohida o'rin tutadi. 1996 yil 21-iyunda O'zbekiston bilan **Yevropa Ittifoqi** o'rtasidagi "Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim" mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik aloqalari yildan-yilga chuqurlashib bormoqda. Mamlakatimizda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning 145 firma va kompaniyasi vakolatxonalari akkreditasiya qilingan. Yevropalik sarmoyadorlar ishtirokida 491 ta korxona ishlayapti. 1995-2002 yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining firma va kompaniyalari umumiyligi qiymati qariyb 8 mln dollarlik yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqining a'zosi **Germaniya** bilan o'zaro manfaatli aloqalari kengayib bormoqda. Bu davlat bilan mamalkatimizning o'zaro aloqalari o'tmishta borib taqaladi. Davlatning aholisi 82,3 mln kishi, umumiyligi yer maydon 357 ming kv.km. Oliy vakillik organi sifatida 709 deputatdan iborat parlament-Bundestag faoliyat yuritmoqda. Mamlakat YaIM 3 trillion yevroga teng. Bu ko'rsatkich orqali Germaniya jahonda AQSh, XXR, Yaponiyadan so'ng 4-o'rinda turadi. YaIM tarkibida xizmatlar 69%, sanoat-30%, qishloq xo'jaligi 1% tanshkil etadi. YaIM kishi boshiga taqsimlaganda 40 ming yevroga, infilyasiya darajasi 0,4% teng.

O'zbekiston Germaniya munosabatlari 1992 yildan boshlangan. Germaniya mamlakati O'zbekiston mustaqilligini 1991 yil 31-dekabr kuni tan olgan. O'zbekiston Respublikasi bilan GFR o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 6 yanvarda o'rnatilgan. 1992 yil 6 martda o'zaro elchixonalar va konsulliklar ochish, diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yish, siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda hamkorlik qilishga kelishib olindi. Shu kungacha ikki davlat o'rtasida 140 dan ortiq turli bitm va shartnomalar imzolangan. 2017 yil 30 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida ikkitomonlama hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 20 yanvarda GFR federal kansleri Angela Merkel taklifiga binoan ushbu mamlakatda bo'ldi. Uchrashuvda asosiy e'tibor ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy investitsiyaviya va texnologik hamkorlikni rivojlantirish masalalariga qaratildi. O'tkazilgan Biznes forumda 8 mln yevroga teng qiymatdagi yangi loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi. 2018 yilda ikki mamlakat o'rtasidagi tovoriayrboshlash hajmi 700 mln yevrodan oshgan bo'lsa, 2019 yil bu ko'rsatkich 1 mln yevrodan oshishi ko'zda tutilgan.

**Fransiya** O'zbekistonning Yevropadagi muhim hamkorlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Fransiyaga davlat va rasmiy tashriflari (1993 va 1996-yillar) hamda Fransiya Respublikasi Prezidenti F.Mitteranning O‘zbekistonga davlat tashrifi (1994-yil) bo‘lib o’tgan. 1996-yil iyun oyida Florensiya shahrida o’tkazilgan Yevropa Ittifoqi davlatlari rahbarlari sammiti va 2002-yil noyabr oyida Praga shahrida bo‘lib o’tgan NATO/YeAHK sammiti doirasida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Fransiya Prezidenti J.Shirak bilan uchrasuvlari ham o’tkazilgan.

Ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirishda Fransiya Tashqi ishlar vazirlari L.Fabiusning 2013-yil mart oyida va J.-M.Eroning 2017-yil aprel oyida O‘zbekistonga amalga oshirilgan tashriflari hamda 2012-yil oktyabr, 2014-yil noyabr va 2017-yil mart oylarida o’tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilovning Fransiyaga tashriflari muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikki davlat Tashi ishlar vazirliklari o’rtasidagi 10 ta siyosiy maslahatlashuvlar bo‘lib o’tgan. Oxirgisi 2017-yilning aprel oyida Toshkent shahrida o’tkazildi.

2008-yil O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida parlamentlararo hamkorlik guruhi tuzildi, 2010-yildan boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasida «O‘zbekiston – Fransiya» do’stlik guruhi faoliyat yuritmoqda.

Fransiya Senatida «Fransiya – Markaziy Osiyo» parlamentlararo guruhi, Milliy assambleyasida «Fransiya – Markaziy Osiyo» do’stlik guruhlari faoliyat yuritmoqda.

2008-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) hamda Fransyaning inson huquqlari himoyachisi o’rtasida hamkorlik to’g’risida bitim imzolandi.

Fransiya O‘zbekistonning Yevropadagi muhim savdo-iqtisodiy hamkorlaridan biridir. 2017-yil yakunlari bo‘yicha ikki tomonlama savdo aylanmasining hajmi 251,6 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo’lsa, hozirgi kunda bu ko’rsatgich yana ham o’smoqda.

Fransiyada Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o’rganish Assosiasiyasi hamda «Avisenna – Fransiya» Assosiasiyasi faoliyat yuritib kelmoqda.

O‘zbekistonning bir qancha yetakchi universitetlari hamda Fransyaning oliv o’quv yurtlari o’rtasida hamkorlik bitimlari va protokollari imzolangan.

**O‘zbekiston-Buyuk Britaniya** munosabatlarining asosi 1993-yil noyabr oyida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ushbu mamlakatga amalga oshirilgan tashrif chog’ida yaratilgan.

Ayni paytda ikki tomonlama hamkorlikning ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda. Mamlakatlar o’rtasida muntazam ravishda turli darajadagi tashriflar amalga oshirilmoqda. Oxirgi bir necha yil davomida O‘zbekistonga Britaniyaning 50 dan ziyod delegasiyalari tashrif buyurgan. Tomonlar tashqi siyosiy idoralar o’rtasidagi maslahatlashuvlar hamda Afg’oniston bo‘yicha muloqotni amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri A.Kamilov rahbarligidagi delegasiyaning 2013-yil 20-22-noyabr kunlari Buyuk Britaniyaga amalga oshirgan tashrifi davlatlararo aloqalarni faollashtirishdagi muhim voqyea bo’ldi.

Parlamentlararo hamkorlik o'zaro aloqalarning istiqbolli yo'nalishlaridan sanaladi. Ikki davlat parlamentlarida o'zaro hamkorlik bo'yich guruqlar mavjud bo'lib, 2010-yil 22-sentyabrda imzolangan Oliy Majlis guruh bilan "Britaniya-O'zbekiston" Umumpartiya parlament guruh o'rtasida imzolangan Anglashuv memorandumi ular faoliyatining huquqiy asosini yaratib bergen.

O'zbekiston-Britaniya Savdo va sanoat kengashi savdo-iqtisodiy munosabatlarning samarali mexanizmi bo'lib, uning 23-majlisi Toshkentda 2016-yil 16-18-noyabr kunlari bo'lib o'tdi.

2016-yilning oktyabrida, 2017-yilning yanvar-dekabr oylarida Oliy Majlis Senati raisining Birinchi o'rnbosari S.Safayev London shahriga tashrif buyurdi. Tashriflar doirasida, jumladan rivojlanishga va respublikaning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan brifinglar, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki, TIV, Buyuk-Britaniya Parlamenti va Britaniyanig bir qator yirik kompaniyalari hamda ilmiy doiralari bilan uchrashuvlar o'tkazildi.

2017-yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko'ra O'zbekiston bilan Buyuk Britaniya o'rtasidagi savdo aylanmasi 115,9 million AQSh dollarini tashkil etib, shundan eksport 33,5 million AQSh dollari, import 82,4 million dollarga teng bo'ldi.

Madaniy-gumanitar hamkorlik ham izchil rivojlanmoqda, jumladan ta'lim sohasida. Toshkentda 2002-yildan buyon Xalqaro Vestminster universiteti faoliyat yuritib kelmoqda, Kembridj universiteti bilan hamkorlikda esa poytaxtimizda Yuqori texnologiyalar o'quv-eksperimental markazi tashkil etilmoqda.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosati haqida konstitutsiyamizda niimalar deyilgan?
2. O'zbekiston va BMT aloqalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlik aloqalari.
4. O'zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari bilan aloqalari.
5. O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalari  
O'zbekistonning AQSh va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi

